



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-iyul

332-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi 354-son qarori ijrosi haqida” 301-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi 354-son qarori ijrosi haqida” 301-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini bajarilishi ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi 354-son qarori ijrosi haqida” 301-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 354-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 10-maydagi PQ–175-son qarori bilan:

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holati ichki ishlar organlari navbatchilik qismining “102” telefon raqamlariga kelib tushgan murojaatlar asosida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ro‘yxatga olinishi;

tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari (keyingi o‘rinlarda – xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari) dastlab tuman (shahar) markaziy shifoxonalarning shoshilinch qabul bo‘limlarining birlamchi ko‘mak xonasiga (keyingi o‘rinlarda – birlamchi ko‘mak xonasi) joylashtirilishi hamda ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatilishi;

2024-yil 1-iyundan boshlab tuman (shahar) markaziy shifoxonalari shoshilinch qabul bo‘limida birlamchi ko‘mak xonasi Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida, 2024-yil 1-oktabrdan boshlab respublikaning qolgan barcha hududlarida tashkil etilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti 1-ilovaga

muvofiq tasdiqlanganligi: xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarini Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining hududiy markazlariga (keying o‘rinlarda – hududiy markazlar) joylashtirish va vaqtincha boshpana (shelter) bilan ta’minlash hamda ulardan chiqarish;

xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimida shakllantirish va yuritish; xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari (keyingi o‘rinlarda – “Inson” markazlari) hamda hududiy markazlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar va ularning monitoringi;

belgilanishicha: birlamchi ko‘mak xonasi tashkil etilguniga qadar xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga qo‘shimcha reabilitatsiyaga muhtojlik aniqlangan hollarda, himoya orderi asosida hududiy markazlariga joylashtirilishi;

“112” yagona dispetcherlik xizmati hamda 1146 qisqa raqamli “ishonch telefoni”ga tazyiq va zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha murojaatlar kelib tushganda, mutaxassislar tomonidan xotin-qizlarga ijtimoiy, psixologik, huquqiy hamda boshqa masalalarda maslahat berish va axborot taqdim etish kabi xizmatlar ko‘rsatilishi, bunda xotin-qizlarga shoshilinch ruhiy, psixoterapevtik va huquqiy yordam ko‘rsatish hamda tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga chora ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, mazkur qo‘ng‘iroqlar ichki ishlar organlari navbatchilik qismining “102” telefon raqamlariga yo‘naltirilishi;

patronaj hamshirasi tomonidan xonadonlarga tashrif buyurish jarayonida kuzatilgan xotin-qizlarga tazyiq yoki zo‘ravonlik holati yuzasidan zudlik bilan majburiy ravishda ichki ishlar organlari xabardor qilinishi;

tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga mazkur qaror talablari asosida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishi uchun Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi mas’ul hisoblanishi;

hududiy markazlar tomonidan ishlab chiqilgan yakka tartibdagi ijtimoiy reabilitatsiya dasturi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan o‘z vakolatlari doirasida bajarilishi majburiy hisoblanishi;

quyidagilar: Tuman (shahar) markaziy shifoxonalarining shoshilinch qabul bo‘limlarida birlamchi ko‘mak xonalarini tashkil etish va jihozlash bo‘yicha minimal talablar 2- ilovaga muvofiq;

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining hududiy markazlarida ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun zarur infratuzilmani shakllantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 3- ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda xotin-qizlarni kasbga o‘qitish, ish bilan ta’minlash davrida ularning farzandlariga qarab turish xizmatini tashkil etish zaruratidan kelib chiqib, hududiy markazlarga Agentlik tizimi tashkilotlarining mavjud shtat birliklari doirasida qo‘shimcha tarbiyachi shtat birligini kiritishga ruxsat berilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida, respublikaning qolgan barcha hududlarida esa 2024-yil 1-sentabrga qadar tuman (shahar) markaziy shifoxonalarining shoshilinch qabul bo‘limlarida 2-ilovaga muvofiq minimal talablar asosida tunu kun ishlaydigan birlamchi ko‘mak xonalari tashkil etilishini ta’minlashi;

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda Agentlik bir oy muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlari, shuningdek, tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limlari

boshliqlari uchun tazyiq hamda zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy va rehabilitatsiya xizmatlarni ko‘rsatish hamda ularning ijtimoiylashuvini ta‘minlash tizimini tashkil etish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etishi;

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Agentlik, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrga qadar mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimini takomillashtirish va zaruratga ko‘ra uning boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta‘minlashi belgilanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov), Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo‘ldoshev), “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (E.Abduraxmanov) bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 25-iyundagi 354-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari J.Raximov va F.Egamberdiyeva zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**N.Xudoyberdiyev**